

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA PROGNOZLASH TUSHUNCHASINING TALQINI

Rozikova Madina Abdurasulovna

Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik prognozlash tushunchasining shakllanishi, mazmuni va uning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari prognozlashning psixologik, pedagogik va boshqaruvga oid yondashuvlarda turlicha talqin qilinishiga qaramay, barcha yo'nalishlarda ta'lim jarayonining istiqbolini oldindan aniqlashning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Pedagogik prognozlash jarayoni diagnostika, tahlil, ssenariy tuzish, prognozlash va baholash bosqichlari orqali amalga oshishi aniqlanib, ushbu bosqichlarning o'zaro bog'liqligi prognozning ilmiy asoslanganligini ta'minlashi qayd etiladi. Amaliy jihatdan prognozlash ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar rivojlanishini nazorat qilish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. pedagogik prognozlash, tashxislash, tahlil, ssenariy tuzish, baholash, ta'lim jarayoni, rivojlanish istiqbollari, boshqaruv samaradorligi.

Аннотация. В исследовании рассмотрены сущность и содержание педагогического прогнозирования, а также его роль в управлении образовательным процессом. Анализ показал, что, несмотря на различные трактовки в психологическом, педагогическом и управленческом подходах, прогнозирование выступает ключевым механизмом определения перспектив развития образовательной системы. Установлено, что процесс прогнозирования осуществляется через последовательные этапы диагностики, анализа, сценарирования, прогноза и оценки, что обеспечивает научную обоснованность и надежность результатов. Практическое значение прогнозирования проявляется в повышении качества образования, предупреждении отклонений в развитии учащихся и поддержке эффективного управленческого решения.

Ключевые слова: педагогическое прогнозирование, диагностика, анализ, сценарирование, оценка, образовательный процесс, перспектива развития, эффективность управления.

Abstract. This study examines the essence and development of pedagogical forecasting, as well as its significance in educational management. The analysis demonstrates that although psychological, pedagogical and managerial approaches interpret forecasting differently, it serves as a central mechanism for determining the future trajectory of the educational process. Pedagogical forecasting is shown to operate through the stages of diagnosis, analysis, scenario development, forecasting and evaluation, ensuring the scientific validity of predictions. Practically, forecasting

contributes to improving educational quality, monitoring learner development, and supporting effective decision-making in educational institutions.

Keywords: pedagogical forecasting, diagnosis, analysis, scenario development, evaluation, educational process, development prospects, management effectiveness.

Kirish. Bugungi raqamli transformatsiya va ta'lim tizimining doimiy o'zgarib borayotgan sharoitida pedagogik jarayonlarni oldindan ko'ra olish, kelgusidagi muammolar va imkoniyatlarni aniqlash, o'quvchi va ta'lim muassasasining rivojlanish istiqbollarini belgilash zarurati keskin ortmoqda. Shuningdek, prognozlash tushunchasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning asosiy metodologik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ta'limdagi yangiliklar, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifatini baholashning xalqaro tizimlari pedagog va rahbarlardan konkret fikrlash, strategik qaror qabul qilish hamda o'zgaruvchan ta'lim muhiti sharoitida natijalarni oldindan tahlil qilish qobiliyatini talab qilmoqda. Shu boisdan, zamonaviy pedagogika prognozlashni faqat kelajakni aytib berish jarayoni sifatida emas, balki ta'lim jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarni oldindan ko'rib, oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlaydigan ilmiy-metodik mexanizm sifatida talqin qilmoqda.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'limdagi ko'plab muammolar ularni oldindan aniqlash va prognoz qilish mexanizmlari sustligidan kelib chiqmoqda. Prognozlashning kuchli tizimi esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning rivojlanishidagi uzilishlarning oldini olish, rahbar faoliyatining samaradorligini ta'minlash va ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozli vaziyatlarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda prognozlash tushunchasining ilmiy talqinini o'rganish, uning mazmun-mohiyatini aniqlash va ta'lim amaliyotida qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu ta'lim jarayonini ilmiy asoslangan holda boshqarish, strategik rivojlanish yondashuvlarini takomillashtirish va pedagog kadrlar kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda, asosan, nazariy:

- Ilmiy adabiyotlarni tizimli o'rganish;
- Pedagogik va psixologik ilmiy maktablar qarashlarini qiyoslash;
- Prognozlashga oid konseptual modellarni tahlil qilish;
- Nazariy umumlashtirish singari metodlardan foydalanilgan.

Prognozlash tushunchasi turli davrlarda pedagogika va psixologiyaning asosiy ilmiy yo'nalishlarida ko'rib chiqilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish mazkur tushunchaning rivojlanishini aniqlashga imkon beradi. Pedagogik prognozlash tushunchasi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllangan bo'lib, uning nazariy poydevori bir nechta yirik ilmiy maktablar

tomonidan ishlab chiqilgan. Adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, prognozlashning mazmuni uch asosiy ilmiy yo'nalishda rivojlangan: psixologik prognozlash, pedagogik prognozlash, boshqaruv va pedagogik tizimlar evolyutsiyasi.

1.Psixologik prognozlashning poydevori: Prognozlashning psixologik asoslari, avvalo, K.Levinning maydon nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, u xulq-atvorni oldindan bilish uchun shaxs va muhitning o'zaro dinamik munosabatini tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [7]. Levinning g'oyalari keyinchalik pedagogik prognozlash metodikalariga asos bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, J.Piajening kognitiv rivojlanish bosqichlari haqidagi tadqiqotlari bolalar intellektining kelajakdagi rivojlanish trayektoriyasini ilmiy asosda bashorat qilish imkonini bergan [9]. J.Piajega ko'ra, bola ma'lum bosqichga yetganida uning keyingi rivojlanishi oldindan taxmin qilinadigan psixologik qonuniyatlarga bo'ysunadi. L.Vigotskiy esa prognozlashni shaxsning potensial rivojlanish darajasi bilan bog'lab, "yaqin rivojlanish zonasi" g'oyasini ilgari surgan. Bu g'oya pedagogik prognozlashning ilmiy asoslangan modeliga aylangan[14].

2.Pedagogik prognozlashning nazariy shakllanishi: Pedagogik prognozlash fani sifatida shakllanishi asosan Rossiya ilmiy maktablari tadqiqotlari bilan bog'liq bo'lib, V.Slastenin pedagogik jarayonni rivojlanib boruvchi tizim sifatida talqin qilib, o'qituvchi faoliyati natijalarini oldindan bilish uchun tashxislash, tahlil va ssenariy qurish bosqichlari muntazam bo'lishi lozimligini ko'rsatadi [11]. U prognozlash pedagogik faoliyatning "strategik tarkibiy qismi" ekanini ta'kidlaydi. N.Kuzmina esa pedagog kasbiy faoliyatining strukturaviy modelini yaratib, unda prognozlash kompetensiyasini asosiy kasbiy komponent sifatida belgilagan [6]. Kuzminaning fikricha, o'qituvchining o'quvchilar natijalarini oldindan bilish qobiliyati – kasbiy yuksaklik mezonidir. Zamonaviy pedagogika vakillaridan biri A.Novikov pedagogik tizimlarni loyihalash va prognozlashga bag'ishlangan asarlarida prognozlash jarayonini "ilmiy asoslangan pedagogik qaror qabul qilish mexanizmi" sifatida talqin qiladi [8]. U prognozlashni tashxis - tahlil - ssenariy - prognoz - tekshirish bosqichlari asosida amalga oshirilishini ta'kidlaydi.

3.Boshqaruv va pedagogik tizimlar evolyutsiyasi bo'yicha tadqiqotlar: P. Druker boshqaruv nazariyasida prognozlashni rahbar faoliyatining strategik markaziy funksiyasi sifatida belgilaydi. Uning fikricha, kelajakni oldindan ko'ra olmagan rahbar jamoani yoki tizimni samarali boshqara olmaydi [3]. Bu yondashuv ta'lim rahbarlari faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq qilinadi. H. Mintzberg esa boshqaruv jarayonini roldan kelib chiqib o'rgangan va rahbarning eng muhim rollaridan biri "monitoring va prognozlash" ekanini ta'kidlagan [5].

4.Zamonaviy tadqiqotchilarda prognozlashning metodik yondashuvlari: Bugungi kunda pedagogik prognozlashning rivojlanishiga quyidagi mualliflar katta hissa qo'shganlar. Jumladan, M. Fullan – ta'limdagi o'zgarishlar nazariyasi, kelajak ssenariylarini tahlil qilish [4], A. Hargriaves – o'qituvchi va ta'lim tizimi

rivojlanishidagi istiqbol tahlili [2], J. Bruner – bilish jarayonlarini rivojlanish dinamikasi orqali prognozlash zarurligini ta’kidlaydi [1]. Ushbu yondashuvlar pedagogik prognozlashga hozirgi zamon psixologik-pedagogik manzaradan kelib chiqib yondashish imkonini beradi. Prognozlash tushunchasi bugungi kunda faqat nazariy pedagogik kategoriya emas, balki ta’lim boshqaruvining texnologik, ilmiy va strategik komponentiga aylangan. Uning asosiy vazifasi - o’quvchilar, pedagoglar va ta’lim muassasasining rivojlanish perspektivasini ilmiy asosda oldindan belgilash hisoblanadi.

Tahlil va olingan natijalar.

Tahlillar shuni ko’rsatdiki, prognozlash pedagogik fanlarda uch asosiy ilmiy yo’nalish asosida shakllangan:

Psixologik yondashuv

- Shaxsning rivojlanish sur’atlari, motivatsion jabhalari va kognitiv jarayonlari kelajakdagi faoliyat natijalarini oldindan ko’rish imkonini berishi aniqlangan;
- Yaqin rivojlanish zonasi prognozlashning eng ilmiy asoslangan modeli ekani tasdiqlandi.

Pedagogik tizimlar yondashuvi


- Pedagogik jarayonning rivojlanishi, o’qituvchining kasbiy kompetensiyalari va ta’lim muassasasi boshqaruvi prognozlash jarayoniga to’g’ridan-to’g’ri bog’liqligi aniqlandi.

Pedagogik boshqaruv yondashuvi

- Rahbar faoliyatida strategik qaror qabul qilish prognozlashga asoslanishi zarurligi ilmiy manbalar bilan isbotlandi.

Proгнозlash barcha ilmiy yondashuvlarda ta'lim jarayonining istiqbolini oldindan belgilashning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijasida pedagogik prognostlashning funksional tuzilmasi 5 ta markaziy komponentdan iborat ekani aniqlandi:



1. Tashxislash (diagnostika) - bu pedagogik jarayonning hozirgi holatini chuqur o'rganish, fakt va dalillarga asoslangan dastlabki ma'lumotlarni yig'ish bosqichidir. Unda o'quvchi, guruh, pedagog yoki rahbar faoliyati haqidagi mavjud ko'rsatkichlar real va obyektiv o'lchovlar orqali aniqlanadi. Tashxislashning asosiy maqsadi - kelajakda prognostlash uchun zarur bo'lgan "boshlang'ich nuqta"ni aniq belgilashdir.

2. Analitik tahlil - bu bosqichda tashxis natijalari yig'ilib, ular o'rtasidagi bog'liqlik, dinamik o'zgarishlar va ichki qonuniyatlar aniqlanadi. Analitik tahlil jarayonning "nima uchun bunday bo'layapti?" degan savoliga javob topadi. Analitik tahlil prognostning ilmiy asosini yaratadi va kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi.

3. Ssenariylashtirish - bu kelajakning bir nechta muqobil yo'nalishlarini ilmiy modellashtirish jarayonidir. U "agar shunday bo'lsa - qanday natija kelib chiqadi?" degan tamoyilga asoslanadi. Ssenariylashtirish rahbar, o'qituvchi yoki ilmiy tadqiqotchiga turli sharoitlarda qanday natija kelishi mumkinligini oldindan ko'rish imkonini beradi va xavf-xatarlarni minimallashtiradi.

4. Prognostlash - kelajakdagi eng ehtimoliy rivojlanish yo'lini ilmiy asoslangan tarzda belgilashdir. Bu bosqich ssenariylar ichidan eng real bo'lganini tanlab, kelajakdagi natijani matematik, nazariy yoki amaliy modellar asosida oldindan ko'rsatadi. Pedagogikda prognostlash o'quvchilarning rivojlanish darajasi,

pedagogning professional yuksalishi, jamoa psixologik muhiti yoki ta'lim muassasasi rivojlanishini oldindan ko'ra bilishdir.

5. Baholash - prognoz qilingan natijalarning real holat bilan solishtirilishi, prognozning aniqligi va samaradorligini tekshirish bosqichidir. Baholash jarayoni pedagogik prognozlashning validligini (aniqligini) oshiradi va tizimning uzluksiz takomillashuviga xizmat qiladi.

Munozara. Tadqiqot davomida prognozlash tushunchasi turli ilmiy yondashuvlarda bir-biridan farqli talqin etilishi aniqlandi. Psixologik yo'nalishlar prognozlashni shaxsning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslanib izohlaydi va kelajakdagi natijalar hozirgi rivojlanish darajasining davomiy oqibati sifatida ko'riladi. Pedagogik yondashuvlarda esa prognozlash ta'lim jarayonini boshqarish, natijalarni oldindan belgilash va pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Boshqaruvga oid yondashuvlar prognozlashni qaror qabul qilish jarayonining markaziy elementi sifatida ko'rsatadi.

Tahlil jarayonida prognozlashning yagona talqini mavjud emasligi, ammo barcha yondashuvlarda umumiy mazmun - kelajakni ilmiy asosda oldindan ko'ra bilish zarurligi - saqlanib qolishi aniqlandi. Psixologik yondashuvlar ko'proq shaxsning ichki rivojlanish dinamikasiga tayanadi, pedagogik yondashuv esa jarayon va natijalarni boshqarishga urg'u beradi. Boshqaruv yondashuvlari esa prognozlashning amaliy qarorlar sifati va samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi. Munozaraning muhim jihati shundaki, ayrim yondashuvlar prognozlashni umumiy qonuniyatlarga asoslangan jarayon sifatida ko'rsa, boshqalari uni individual rivojlanish jarayoni bilan bog'laydi. Shuningdek, normativ va individuallashtirilgan prognozlash o'rtasida ham sezilarli farqlar mavjud. Tadqiqot natijalari esa kompleks yondashuv - tashxislash, tahlil, ssenariy tuzish, prognozlash va baholash bosqichlariga asoslangan integrativ model - eng samarali mexanizm ekanini tasdiqladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida pedagogik prognozlash tushunchasining mazmuni, tarkibiy qismlari va amaliy ahamiyati aniq belgilandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, prognozlash ta'lim jarayonini ilmiy asosda boshqarish, o'quvchilar rivojlanishidagi o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish va pedagogik faoliyatni samarali yo'naltirishning muhim vositasidir. Turli ilmiy yondashuvlar prognozlashni turlicha talqin etgan bo'lsa-da, ularning umumiy jihati - ta'lim jarayonining kelajakdagi rivojlanish trayektoriyasini aniqlash va ilmiy qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash - sifatida namoyon bo'ladi.

Prognozlash jarayoni diagnostika, tahlil, ssenariy tuzish, prognozlash va baholash kabi uzviy bosqichlar orqali amalga oshishi aniqlangan bo'lib, ushbu bosqichlarning bir-biriga bog'liqligi prognozning aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tashxislash jarayonining sifatli tashkil etilishi

kelajak ssenariylarining to'g'ri shakllanishi va ilmiy asoslangan prognoz olish uchun asos yaratadi.

Umuman olganda, pedagogik prognozlash ta'lim tizimining innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirish, o'zgaruvchan sharoitlarda samarali faoliyat yuritish va ta'lim jarayonini istiqbolli rejalashtirish uchun zarur metodologik asoslardan biridir. Ushbu yo'nalishda tadqiqotlarning davom ettirilishi ta'lim sifatini oshirish va pedagogik amaliyotni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Bruner J. The Process of Education. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1977. - 128 p.
2. Drucker P. The Practice of Management. - New York: Harper & Row, 1954. - 404 p.
3. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. - New York: Teachers College Press, 2007. - 368 p.
4. Hargreaves A. Teaching in the Knowledge Society: Education in the Age of Insecurity. - New York: Teachers College Press, 2003. - 232 p.
5. Кузьмина Н.В. Профессионализм педагогов: педагогическая система. - Москва: Педагогика, 1990. - 192 с.
6. Lewin K. Field Theory in Social Science. - New York: Harper, 1951. - 346 p.
7. Mintzberg H. The Nature of Managerial Work. - New York: Harper & Row, 1973. - 298 p.
8. Новиков А.М. Методология научного исследования. - Москва: Экон-Информ, 2010. - 288 с.
9. Piaget J. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge & Kegan Paul, 1950. - 297 p.
10. Сластенин В.А. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических вузов. - Москва: Академия, 2002. - 512 с.
11. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.